

1.1. KIMYO FANI NIMANI O'RGANADI?

Kimyo — moddalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari va ularning bir turdan boshqa turga aylanishi sababi va qonuniyatlarini o'rganadigan fan. Kimyo ko'plab sohalarga bo'linadi. 1.1-rasmda ba'zi misollar ko'rsatilgan.



1.1-rasm. Kimyoning ba'zi sohalari.

Kimyo fani nafaqat olimlar, balki barcha uchun muhimdir. Kimyo atrof-muhitni idrok etishga, muammolarni hal qilishda mantiqiy va tizimli fikrlashga yordam beradi.



1.2-rasm. Nima uchun suvning rangi o'zgardi?



1.3-rasm. Nima uchun temir mix zanglaydi?

O'ylab ko'ring

Agrokimyogar tuproq va o'simliklardagi kimyoviy va biokimyoviy jarayonlarni, kulol tuproq turlarini va ularning xususiyatlarini bilishi kerak. Nima uchun kimyo faniga oid bilimlar kundalik faoliyatda muhimligini o'ylab ko'ring. Juftlikda ishlang va xulosalaringizni sinf bilan o'rtoqlashing.



Asosiy tushunchalar

- Kimyo — moddalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari va ularning bir turdan boshqa turga aylanishi sababi va qonuniyatlarini o'rganadigan fan. Kimyo ko'plab sohalarga bo'linadi. Masalan: fizik kimyo, analitik kimyo, anorganik kimyo, organik kimyo, kimyoviy texnologiya va boshqalar.
- Kimyo fani bizning kundalik hayotimiz bilan chambarchas bog'liq.